

---

## Sektorlar faoliyatidan:Inson qalbiga yo'l mehr-muruvvat va saxovatdan boshlanadi

????Insonlarni qadrlash, yakka yolg'iz onaxonlar, kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalar xolidan xabar olish, bemorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash xalqimizga xos fazilatlardan biridir.

Rishton tumanida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kam ta'minlangan oilalarning yashash sharoitlarini yaxshilish borasida talaygina ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Yangi yil bayrami munosabati bilan tuman prokurori, 2-sektor rahbari R. Madaliev tashabbusi bilan ushbu sektor hududida yashovchi keksa, nogironligi bo'lgan, yakka yolg'iz onaxonlar holidan xabar olinib, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Qayd etish lozim, tashkil etilgan bunday xayrli saxovat tadbirlar ehtiyojmand oilalar uchun munosib e'tibor bo'lmoqda.

2022-12-26 14:21:04